



Hafiza Salyahova,

jurnalist, Farg'ona viloyati

Vaqt, imkoniyat, omad – baxtga eltuvchi omillardir

Farg'onamizda fidokorona mehnatlari tufayli «Mohir aloqachi» unvoniga sazovor bo'lganlar talaygina. Enver Andjigeldiyev ana shular jumlasidan. Quvonchiga sherik bo'lish maqsadida, telekommunikatsiya sohasining 35 yillik rivojlanish bosqichlarida faol ishtirok etgan mazkur muhandis bilan hamsuhbat bo'ldik. Ushbu suhbat aloqachi yoshlar uchun ibratli saboq bo'ladi, degan umiddamiz.

– Enver Tayfukovich, mazkur sobani tanlasangiz sababi haqida qisqacha so'zlab bersangiz?

– Harbiy xizmat sabab bo'lgan. O'lis yurtlar o'rmonzorlarida aloqa qismida xizmat qilganman. O'shandayoq aloqa «alifbo»sini egallab olgandim, desam aslo mubolag'a bo'lmaydi. Ikki yillik xizmat sharo-fati bilan taqdirim shu kasb bilan bog'liq ekanligini bildim. Tug'ilgan makonim – Farg'ona viloyati Bag'dod tumaniga qaytganimda, menda qaysi kasb boshini tutay degan savol yuzaga kelmadi. Maishiy xizmat texnikumida o'qidim. So'ng Toshkent elektr aloqa institutida (hozirgi TATU) sirdan tahsil oldim.

– Ish faoliyatingiz qanday kechdi?

– Farg'ona shahar TTT elektromontyori, kross elektromexanigi, tarmoq sexi boshlig'i o'rinbosari, ShTBda bosh muhandis, markazlash-gan laboratoriyada stansiya qurilmalari bo'yicha bosh mutaxassis... Hozir filial texnik qo'llab-quvvatlash va yangi texnikalarni testdan o'tkazish xizmatini boshqaryapman. Ish faoliyatimda bosib o'tgan yo'lim shun-day kechdiki, xohlasangiz ham, xohlamasangiz ham sohamiz mohiri bo'lish, bilim-malakani tinmay oshirishni talab etadi.

– Hayotingizning eng yorqin sabifalari haqida so'zlab bersangiz?

– Buyuk alloma Al Xorazmiy ilmiy-kashfiyotlari insoniyat hayo-tini yoritgan kunlar, kelib chiqishi shotland bo'lgan musiqa va notqlik san'ati o'qituvchisi Aleksandr Grexem Bell «telegraf»ni ixtiro qilaman deb, telefon ixtiro qilganini o'zi ham bilmay qolgan kun, 1939-yilda Farg'ona shahrimizda 800 raqamli qo'l mexanik stansiyasi foyda-lanishga topshirilgan kun, «Motorollo» kompaniyasining muhandisi Martin Kuper 1973-yil aprel oyida Nyu-York ko'chalarining biridan mobil telefonning dastlabki modelidan AT&T BEEL korporatsiyasi

ilmiy-tadqiqotlar bo'limi boshlig'i Joel Engelga qo'ng'iroq qilgan kun... Bular o'sha davr uchun olamshumul voqea sifatida shodiyonalik bilan nishonlangan bo'lsa, ehtimol. Ma'lumki, sohamiz tarixida uzoq yillar, ayniqsa, 1975-yillarda jadal rivojlanish odimlari kuzatilgan. Bular ham bayramona kayfiyatda kutib olingani aniq. Shunday muhim voqe'liklar amalga oshirilgan kunlarni hayotning yorqin sahifalari deb hisoblash mumkin. Aslida, xalqimiz manfaat yo'lida xizmat qilayotgan har bir kunimizni hayotimning yorqin sahifasi deb bilaman! – deya o'ziga xos nimtabassum ila kulimsiraydi u.

– Ochiqroq aytadigan bo'lsam, hayotimda ajoyib voqe'liklarga boy kunlarim ko'p bo'lgan, umid qilamanki, bundan keyin ham ko'p bo'ladi. Texnikumga, institutga kirgan, farzandlar ko'rgan kunlarim umrimni bezab turgan saodatbaxsh kunlardir. Shuni ham ta'kidlamoqchi edim-ki, Janubiy Koreyaning DAEWOO Telecom kompaniyasida uch oylik kursda o'qigan kunlarim ham, siz ta'riflaganday, «eng yorqin» damlar bo'lgan. Shahar va tumanlar TBlaridan jami 20 nafar muhandislar, jumladan, Farg'ona shahridan Begomon Nosirov, Ikromjon Elmurodov, Niyara Suleymonova, Shukur Alimov, Yoqubjon Qurbonovlar profilak-toriyimizda joylashgan o'quv bazasida tashkil etilgan o'quv kursida in-gliz tilini ishtiyiq bilan o'rgandik. Shunisi quvonchliki, hammamizga ham maxsus mukammal tuzilgan loyiha asosida egallagan bilimlarimiz o'zimiz, biz ishlayotgan jamoalarga faqat va faqat ezguliklar keltirdi. Rostdan ham o'shanda biz safardoshlarga omad kulib boqqan ekan. Iqtidorimizni ishga solib, bilim-ko'nikmalarimizni amalga tatbiq etib bormoqdami. Sohamiz rivojiga salmoqli hissa qo'shish – har kungi shiorimizdir. Bizga bildirilgan yuksak ishonchni oqlashga intilmoq-damiz. 1993-yil 1-sentabr – Eng aziz, eng ulug' bayramimiz kuni 50000 raqamli stansiyaning katta shodiyona ruhda foydalanishga top-shirganimiz kechagiday yodimda. Bu mamlakatimiz aloqa va telekom-munikatsiyalari tarixiga zarhal harflar bilan yozilishga munosib voqea



bo'lgan edi. Quvonarli tomoni shundaki, bu ishlarni amalga oshirishda bizning ham hissamiz bor.

Endilikda kutilmagan, favqulodda yangiliklar yuz bersa ham — oddiy, odatdagi holdek qabul qilamiz. Sababi bayram qilishga ulgurmay boshqa yangilik, boshqa texnika qurilmalari hayotimizga kirib kelmoqda! Hozirgi kunlarda optik tola kabellarini nafaqat korxonada va tashkilotlarga, balki ko'p qavatli uylargacha, eng kichik mahallalargacha olib kiriyapmiz. Eng yangi uskunalarni o'rnatyapmiz. Jarayon qizg'in davom etmoqda. Bir so'z bilan aytganda, odamlar moddiy va ma'naviy hayotini, dunyoqarashini o'zgartirish yo'lida mehnat qilayotganimiz, Internetdan foydalanuvchilar safining kengayishida, aholi uchun eng qulay imkoniyatlarni taqdim etish sohasiga hissa qo'shayotganimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

— **Birinchi ustozingiz kim? Uning qaysi o'g'illari yodingizda qolgan?**

— Ustozlarim juda ko'p. Yetuk muhandis bo'lib shakllanishimizda, texnikum, institutdagi o'qituvchilarning rollari beqiyos katta bo'lgan, albatta. Lekin Farg'ona shahar TBda ish boshlagan choqlarimda ustoz Mixail Xayrullin bergan ta'lim-tarbiya meni haqiqiy aloqachi sifatida ulg'aytirdi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Ustozim doim: «Mijoz hamisha haq! O'zingni sira oqlama. Bahonang torozi bosmaydi!», «Kam gapiru, ko'p ishla!» — derdi. Halol aloqachilik sabog'ini shu insondan o'rgandim. Shogird uchun bu katta baxt bo'lsa kerak.

— **Kimlarni sbogirdim deb ayta olasiz? Ularning tajriba orttirishlariga qanday yordam berasiz?**

— Safimizga zamonaviy bilimlarga ega, aloqachi madaniyati va malakasini o'zlarida mujassam etishga intilayotgan TATU bitiruvchilari kelib qo'shilishmoqda. Ularga juda havasim keladi. Ular meni ustoz deb bilishadimi, yo'qmi, lekin har biriga mehribon o'zgaracha. So'rashsa, jonim bilan javob beraman, yo'l-yo'riq ko'rsataman. Biroq chorak asrlik qadrdonim, Rustamjon Shamsitdinovni faxr bilan shogirdim desam bo'ladi. Aloqachilar sulolasidan bo'lgan Rustamjonning o'zi ham endilikda ko'plarga mehribon murabbiy. Mustafu Qahramonov, Aleksandr Markosyan, Shohruh Qozixonov, Yunus Kurametov... Hammasi ham dono, zukko yigitlar. Nasihatgo'ylikka hojat ham yo'q. Ular — katta kuch. Bizda bilim, tajriba, ularda g'ayrat-shijoat, birgalikda olg'a intilamiz. — kulimsiraydi yana u.

— Ular bilan axborot texnologiyalari sohasidagi yangiliklar bo'yicha bahslashib zavqlanaman. Haqiqat bahslarda tug'iladi. Bo'lmasam-chi, biz, telekomchimiz, boshqa soha odamlaridan bir qadam emas, o'n qadam oldinda yurishimiz shart, deyman. Bir nafas faromush qolsak bormi, uyaliq qolishimiz hech gap emas, deb xushyorlikka chorlab turaman, axir mohir aloqachilik martabasiga yetish osonmas. «Mohir aloqachi» unvoni sohiblari oramizda talaygina, jumladan: Solijon aka Ahmedov va Abduvahhab aka Nazarovlar, uzoq yillar sohaga yoshlik shijoatini baxshida etgan Ro'zimat aka Qodirov, To'ychi aka Jo'raqulov, Rasul aka Uzoqov... Ular el-yurt hurmat-e'tiboriga mehnat va faqat mehnat bilan erishganlar. Vaqt, imkoniyat, omadni bebaho boylik deb bilib, ularni aslo boy bermaganlar. Chinakam baxtu-iqbol deb, menimcha, shunga aytisalar kerak.

— **Yangi 2019-yilni qanday kutib olayapsiz?**

— A'lo darajada. Xizmatlar sifatini tobora yaxshilashga muvaffaq bo'lyapmiz. Yaqinda eng yaxshi kavsharlovchi, kabel kavsharlovchi, elektromontyorlar, jumladan, Ikromjon O'lmasov, Aziz Hojiyev, Hasanboy Abdunosirov, Tohir Toshmatov, Ortig'ali Xomidov, G'ayrat Sotqinov, Olomurod Olimov, Abdumutalib Do'stmatov... jami 43 nafar ishchi-xodimlarimiz mehnatlariga yuqori baho berildi. Izzat-ikrom ko'rsatildi. Ularga Konstitutsiyamiz qabul qilganligining 26 yilligi tantanasi munosabati bilan esdalik sovg'alari taqdim etildi. Eng murakkab, qiyin ishlarni og'rinmay bajaradigan kamtar, kamsuqim mutaxassislarimiz mehnatlari qadr topayotgani, maoshlari oshirilayotganidan sevinmay bo'ladimi?! Bundan boshimiz osmonga yetadi! Taraqqiyot ana shunday zahmatkash mutaxassislarga bog'liqligini unutmaymiz albatta, ularni bu ezgu ishlarini faqat tabriklash, quvvatlash zarur. Fursatdan foydalanib, «O'zbektelekom» AK Farg'ona filiali ma'muriyati hamda jamoasi nomidan yurtimizdagi barcha hamkasblarim, barcha aholini kirib kelayotgan Yangi 2019-yil bilan chin dildan, samimiy muborabod etaman. Xonadonlariga tinchlik-osoyishtalik, ishlarida katta zafarlar tilayman. Yurtimizga ko'z tegmasin, yanada gullab-yashnayversin. Yangi yilda barchaga Omad va Baxt yor bo'lsin!

— **Sermazmun subbat uchun rahmat.** 🙏

Suratda Enver Adjigeldiyev sbogirdi Rustamjon Shamsitdinov bilan isb ustida. Suratlar muallifniki.